

## FARG`ONA VILOYATIDA NASHR ETILGAN JADID GAZETALARIDA IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTNING ADABIY-BADIIY YORITILISHI

*Abduraxmonova Xursanoy Anvarjonovna*  
NamDU Tarix yo`nalishi 2-kurs magistranti  
E-mail: [g.Abduraxmonova@Xursanoy.uz](mailto:g.Abduraxmonova@Xursanoy.uz)

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi davrida nashr etilgan dastlabki gazetalar, xususan, Farg`ona viloyatida nashr etilgan jadid gazetalar, ularda yurtimiz aholisining ijtimoiy hayoti, Farg`ona viloyatining ijtimoiy-siyosiy holatining tasviri yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** "Ferganskoye exo", "Maktabi Muhammadiya", "Kecha maktabi ochilur" maqolasi, "Islohni nimadan boshlarg'a?" maqolasi, "Ovro'pa urushi" maqolasi.

*"Madaniy davlatning barcha fuqarolari ma'rifatning porloq ziyosiga intilmog'i kerak. Madaniyat ziyosiga yo'l ochmoqning eng yaxshi omili matbuotdir".*

**Mahmudxo'ja BEHBUDIY**

Chor hukumati davrida Jadidchilik harakati tarafdorlari tomonidan, avvalo, aholiga ziyo tarqatish maqsadida, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni ko'zlagan holda turli shahar markazlarida davriy gazetalar nashr etildi. Shulardan biri Farg`ona viloyatida tashkil etilib, nashri yo'lga qo'yilgan "SADOI FARG`ONA" ("Farg`ona ovozi") — jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy gazetasidir.

Ushbu gazeta Qo'qonda 1914-yil 3-apreldan 1915-yil 26-may oyiga qadar o'zbek tilida nashr qilingan. 1914-yil 17-iyuldan "Ferganskoye exo" nomi bilan haftada 3 marta rus tilida ham chiqqan. Gazetani qo'qonlik taraqqiyparvar shaxs, ziyoli va tadbirkor Obidjon Mahmudov (taxallusi: Obid Chatoq) tashkil etgan. Ushbu gazeta xususiy bosmaxonada 4 sahifada, taxminan, 500-600 nusxada chop qilinib, asosan, qo'lda tarqatilgan.

Dastlab ushbu tahririyatning tarkibi 3 kishidan iborat bo'lgan:

1. Obidjon Mahmudov - noshir va muharrir,
2. Ashurali Zohiriy - adabiy xodim, musahhih,
3. Usmon Nuriydan - rus tilidan o'zbekchaga tarjima qilish bilan shug'ullangan. [1]

Obidjon Mahmudov va Ashurali Zohiriy gazeta uchun turli mavzularda maqolalar yozishgan. "Sadoi Farg`ona"da o'sha davr o'zbek adabiyoti va publitsistikasining taniqli namoyandalari - Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Sulaymonov (Cho'lpon), To'lagan Xo'jamiyrov (Tavallo), Ibrohim Davron, Saidahmad Vasliy va boshqalar she'r va maqolalari bilan faol hamkorlik qilganlar. "Sadoi Farg`ona" gazetasida publitsistik va

adabiy janrlarda yozilgan asarlardan tashqari, Rossiya firmalari, shuningdek, Qo‘qondagi tijoratchilarning mollarini reklama qiluvchi e’lonlar ham bosilgan. Gazetada madaniy-ma’rifiy mavzu markaziy o‘rin tutgan. "Sadoi Farg‘ona" yoshlarga dunyoviy bilimlarni o‘rgatuvchi zamonaviy (usuli jadid) maktablarni izchil tashviq qilgan, bu masala yuzasidan munozaralar uyushtirgan, millatning ijtimoiy ongini yuksaltirishga xizmat qiluvchi yangi badiiy adabiyot, matbuot yaratish, xalq ommasiga tushunarli adabiy tilni shakllantirish, yoshlardan bilimdon, ma’naviy barkamol mutaxassislar yetishtirish kabi milliy taraqqiyotga doir dolzarb muammolar haqida bahs yuritgan. Jami 122 soni chiqib, so‘ng to‘xtatilgan.

Gazeta xalqni jaholatga qarshi kurashga, foydasiz rasm-rusum va bid’atlarni tugatishga, ularga sarflanadigan mablag‘larni esa millat bolalarini o‘qishi uchun ishlatishga chaqirdi. "Sadoi Farg‘ona" ilk sonlaridanoq xalqning sevimli gazetasi va muhokama minbariga aylanib ulgurdi.

Gazeta Turkiston jadidlarining ta’limni isloh etish g‘oyasini bosh masala sifatida o‘z oldiga qo‘ydi va "usuli jadida" maktablarini targ‘ib etdi. Uning 9-sonida "Muallim afandilarga ochuq maktub" nomli xabarda muallif jadid maktablari muallimlarining imtihonga tayyor ekanligini ta’kidlab, ularning mehnatlariga tashakkur izhor etadi. "Sadoi Farg‘ona"ning 13-sonida Qo‘qonning "Xonaqoh" mahallasidagi "Maktabi Muhammadiya" haqida so‘z yuritilgan bo‘lsa, 17-sonida Yahyo qori Shahrixon jadid maktablarida o‘tkazilgan imtihonlarda o‘quvchilarning ilmidan mag‘rur bo‘ladi va muallimlarni alqaydi.

"Sadoi Farg‘ona"ning 44 va 47-sonlarida Obidjon Mahmudovning "Usuli jadidni ixtiro qilib turub, yana boshqalardan shikoyat qiluvchilarg‘a taajjub" maqolasida maktab va madrasalarda ta’lim berish usulini mujtahidlar ilgari ham isloh qilgani haqida yozadi. "Usuli jadida endi o‘ylab topilgan narsa emas, eski maktabni isloh qilishga qarshi turuvchilar biroz mulohaza qilsinlar, hozirgi voqelik, ijtimoiy turmushning mohiyatiga yetmay, ularning johilligi tufayli aziyat chekayotganlar bor. Bunga qaysi biri — usuli qadimmi yoki usuli jadid maktablari aybdormi", deb o‘z fikrini xulosalaydi muallif. [2]

Gazetaning 76-sonida qo‘qonlik H.H.N. imzosi ostida (Hamza) "Muallim afandilarimiza ulug‘ rajomiz" sarlavhali murojaatda turkistonlik musulmonlarning hayotda tuban va xor bo‘lib yashayotganlarga zamonaviy bilimlardan chetda qolayotgani sabab bo‘layotgani aytiladi. Hamzaning "Maktabi "dor ul-aytom", yangi yetimlar maktabi" maqolasida esa ota-onasi yo‘q, ko‘cha-ko‘yda qolgan bolalarni o‘qitish masalasi ko‘tarilgan.

"Sadoi Farg‘ona"ning 61-sonida Mahmudxo‘ja Ahmadxo‘ja o‘g‘lining "Kecha maktabi ochilur" maqolasida kechki maktablarni ochish masalasining dolzarbligi va unda o‘qitiladigan bilimlar batafsil bayon qilinadi. Nashrning 93-sonida "Hunar maktabi" nomli xabarda Andijonda sartaroshlik maktabi ochilgani va hunar egalarining ish bilan ta’minlanishi haqida yoziladi. Shuningdek, gazetaning 7-sonida bosilgan

“Rusiyada yahudiy maktablari” nomli maqolada: “Rusiya yahudiylari musulmonlarning choragidan ham kam bo‘lib, hammasi 6 million miqdoricha bordir. ...1914-yilgi hisobotga qaraganda, yahudiylarning o‘z din va tillarini o‘rgatadigan milliy maktablari Rusiyada rasmiy 10000 dan ortiq ekan. Ulardan besh barobar ortuq musulmonlarning eski va yangi maktab madrasalari bilan bari qo‘shilib ham 9000 ga yetmaydur”, deyilgan.

“Sadoi Farg‘ona”ning 44-sonida “Buxoroda maktablar yopilmoqda” nomli maqolada 1914-yil 5-iyul, shanba kuni Buxoro qozikaloni va qushbegisining Buxoroda 3 ta (Govkushon — 70 nafar o‘quvchi, Bozori Kafsh — 20 nafar, Labihovuz — 35 nafar) yangi usul maktabini yopib, o‘qituvchilardan xat olgani ma‘lum qilinadi. Muallif ko‘chada qolgan bolalarning yig‘lab yurgani haqida yozadi. Turkiston o‘lkasidagi taraqqiyparvarlik harakatini qo‘llab-quvvatlab, Turkmanistonning Chelikin ovulida ochilgan jadid maktabi muvaffaqiyatlarini, Koshg‘arda ochilgan jadid maktabi haqida xabar beradi.

“Sadoi Farg‘ona” sahifalarida oliy ta‘lim muammolari, ayniqsa, madrasa ta‘limini isloh etish bilan bog‘liq munozaralarga keng o‘rin ajratilgan. Uning ilk sonida Shokir Muxtorov “Islohnimadan boshlarg‘a?” maqolasida tarbiyani, eng avvalo, ibtidoiy maktablarni isloh qilishdan boshlash kerak, deydi.

Gazetaning 3-sonida mulla Abdullabek Musobek hoji o‘g‘lining “Isloh ul-isloh” maqolasi ham shu mavzuga bag‘ishlangan. Muallif Sh. Muxtorovni tanqid etib: “Mavjud madrasalarni tanqid qilish deb, ularni yoppasiga yerga uraverish kerak emas, negaki hozircha ushbu madrasalarimizdan boshqa oliy tahsil oladigan muassasalarimiz yo‘q. Buning ustiga, alloma darajasiga ko‘tarilgan buyuk ajdodlarimiz barchasi madrasalardan chiqqan. Faqat qadimda mudarrislar to‘y, ziyofat, ta‘ziya va hokazo deb darsni tashlab ketmaganlar.

Agar vijdon bilan yondashilsa, hozirgi madrasa ta‘limi dasturidagi barcha fanlarni o‘zlashtirish mumkin”, deydi. Gazetaning 7-sonida Sh. Muxtorovning “Mo fi isloh ul-isloh” maqolasi yuqoridagi fikrlarga javob shaklida yozilgan bo‘lib, muallif “ulumi qadima”ni inkor etmasligini, faqat talabalarga dunyoviy ilmlar bo‘yicha asl manbalarni emas, hoshiyalarni o‘qitishga, eng mo‘tabar va kerakli kitoblar o‘rniga “Rivoyati mutanoqaza”, “Jome’ ar-rumuz” kabilarni o‘qitishga qarshiman, deydi. Darhaqiqat, keng muhokama etilgan bu munozaralar jamoatchilikda ijtimoiy fikrning uyg‘onishiga, ziyolilarimiz, xususan, ulamolarimizning o‘z faoliyatlariga bir oz bo‘lsa-da, tanqidiy yondashishlariga sabab bo‘lgan edi. “Samovarda mullabachchalar” maqolasida talabalar axloq-odobga va ko‘chada bekor yurmaslik, o‘zlarining xulqi bilan xalqqa o‘rnak bo‘lishga chaqiriladi. [3]

“Sadoi Farg‘ona” o‘z sahifalarida siyosiy xabarlarga ham keng o‘rin bergan. Muhimi, bu materiallar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustamlakachi manfaatini emas, aksincha, Turkiston xalqlarining qiziqishlarini ham ifoda etgan. Nashrning 44-soni ilk sahifasidagi “Avstriya-Serbiya ixtilofi” maqolasi urush mavzusiga bag‘ishlanadi. Unda urush

harakatlari haqida o'quvchilarga batafsil ma'lumot beriladi. Gazetaning 52-sonida Nuriyning "Ovro'pa urushi" maqolasida urush endi jahonning barcha mamlakatlarini qamrab olganligiga e'tibor qaratiladi. E'tiborli jihati shundaki, muallif qardosh Turkiyaning urushga kirishi kutilayotganidan tashvish bildiradi. U aslida Turkiyaning do'sti yo'q va uning betaraf turgani yaxshi edi, deb xulosa bildiradi.

"Sadoi Farg'ona"ning 77-sonida "Ranee utro" gazetasidan olingan maqola berilib, unda Turkiyaning urushga kirishi va uning harbiy ahvoli haqida o'quvchilarga xabar beriladi. Bu, avvalo, o'quvchilarning talablari natijasi bo'lib, jahon urushida Turkiston xalqining Turkiya mamlakatiga nisbatan hamdard munosabatidan dalolat beradi. Gazetaning 82-sonida "Targ'ib iona" maqolasida urushning insoniyat boshiga solayotgan kulfatlari haqida aytilib, aholi jabrdiyda musulmonlarga yordam tariqasida ionalar yig'ishga chaqiriladi. Shuningdek, 84-sonida "Hind musulmonlariga murojaat" nomli xabarda musulmonlarning urushga nisbatan pozitsiyasi qanday bo'lishi kerakligi aytiladi. Jumladan, islom mamlakatlarining yetakchisi bo'lgan Turkiyaning urushga kirishi oxirida har qanday holatda uning ziyoniga o'ynashi va davlatning imperialistlar tomonidan bo'lib olinishiga olib kelishi yoziladi.

Darhaqiqat, urush yakunlanishi bilan Turkiya o'z hududlarining deyarli 80 foizidan ayrilgan edi. "Sadoi Farg'ona"ning 94-sonida N.Donchenkoning "Russkoye slovo" gazetasida e'lon qilingan maqolasi asosida "Urush maydonidagi turkmanlar" maqolasini muallif turkiy yigitlarning azaldan jasoratli bo'lgani, bu dasht arslonlari Chingizxon, Amir Temur qo'shinlarida dunyoning eng qudratli armiyalarini barpo etganini esga olishdan boshlaydi. Shundan so'ng turkman yigitlarining tug'ma bahodirligi, otlarining chidamliligi, sardorlari askarlar bilan teng yashashlari hamda jangda yagona kuchga aylanishi va ularni hech qanday yutib bo'lmasligini yozadi. Bu maqola mustamlaka zulmi ostida ahvoli zabun, milliy armiyadan mahrum xalqning g'ururini tiklashga, milliy istiqlol uchun birinchi zaruriy shart bo'lgan milliy armiya orzusining ifodasi edi. [4]

Nashrning 96-sonida "Insoniyat qahramoni betaraf qiz" haqidagi maqolada urush maydonlaridagi hayot qalamga olinadi va insoniyat uchun urush hech qachon foyda keltirmasligi aytib o'tiladi. Bu Turkiston jadidlarining urushga nisbatan yakdil pozitsiyasini ifodalar edi. "Sadoi Farg'ona" gazetasining sahifalari dunyoda kechayotgan jarayonlarni aynan milliy manfaatlar va intilishlar yuzasidan aks ettirgan. Jumladan, Yaponiyada tatar teatri qo'yilishi, Yaponiyada musulmon deputati va ayollar huquqi masalalariga ham o'rin ajratiladi.

"Sadoi Farg'ona"ning so'nggi 123-soni 1915-yilning 6-mayida chop etiladi. Gazeta o'z davrining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, maishiy muammolarini dadil ko'tara olgan nashr sifatida o'zbek jurnalistikasi tarixidan munosib o'rin egalladi. Turkistondagi boshqa jadid gazetalaridan "Sadoi Farg'ona"ning yana bir farqli jihati shu ediki, u o'zining sahifalarida ulamolar uchun ham keng o'rin berdi va hech qachon keskin ziddiyatga sabab bo'luvchi maqolalarni chop etmadi. Mana shu mo'tadil siyosati tufayli



gazeta Turkiston ulamolarining ham, jadid taraqqiyparvarlarining ham birday sevimli minbariga aylana oldi. Ikkinchi tomondan, gazeta ijod ahli uchun ham keng o‘rin ajratdi. Gazeta sahifalarida So‘fizoda, Tavallo she‘rlari, yosh Cho‘lpon, Ibrohim Davronning ilk ijodiy namunalari nashr etildi. Aytish mumkinki, “Sadoi Farg‘ona” keyinchalik Turkistondan ko‘plab ijodkorlar, jurnalistlar yetishib chiqishida ham katta rol o‘ynadi.

“Sadoi Farg‘ona” o‘z sahifalarida siyosiy axborotlar uchun ham keng o‘rin ajratgan. Bu materiallar, asosan, Birinchi jahon urushi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, Turkiston jadidlarining muayyan maqsadlarini ifodalashi bilan ahamiyatga molikdir. “Sadoi Farg‘ona” o‘z davrida xalqimizning siyosiy ongini, siyosiy madaniyatini oshirishda bemisl xizmat qildi. Keyinchalik ilk siyosiy tashkilotlar, siyosiy partiyalarning paydo bo‘lishida juda katta rol o‘ynadi

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizova N. A., Turkiston matbuot tarixi (1870-1917). T., 2000.
2. Sharafiddinov A. Farg‘ona viloyati tarixidan lavhalar (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). birinchi kitob. -Farg‘ona, 2013. -B.22
3. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajavuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -Toshkent; Sharq,1998. -B. 189
4. Abdurahmonova N. A., Ergashev F. R., Turkistonda chor mustamlaka tizimi. -T.: Akademiya, 2002. -B. 65